

№01-10/2
24.05.2023-й.

TASDIQLAYMAN
O‘zbekiston Respublikasi
Adliya vazirligi huzuridagi
“O‘zarxiv” agentligi direktori,
Hay’at raisi



U.M. Yusupov

2023-yil 24-may

**“O‘zarxiv” agentligi Hay’atining kengaytirilgan yig‘ilishi
2-son BAYONI**

2023-yil 24-may

Toshkent sh.

Raislik qiluvchi:

U. Yusupov

“O‘zarxiv” agentligi direktori, Hay’at raisi;

Qatnashdilar:

Sh.Sadikov, X.Isayev, D.Kucharova,
A.Mamanazarov, D.Zakirova

“O‘zarxiv” agentligi Hay’ati a’zolari;

Taklif qilinganlar:

G.Boboyeva, D.Madiyeva,
S.Haqnazarov

“UZA” O‘zbekiston Milliy axborot agentligi
muxbiri, “O‘zbekiston 24” radiokanali
jurnalisti, “Mahalla” radiokanali jurnalisti

KUN TARTIBI:

I. “O‘zarxiv” agentligining 2023-yil 1-chorak yakunlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti hamda Hukumati tomonidan belgilangan vazifalarning bajarilishi to‘g‘risida (U. Yusupov).

II. “O‘zarxiv” agentligida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti hujjatlari va topshiriqlari ijrosini tashkil qilish va nazorat qilish, Agentlik tizimidagi tashkilotlarda ijro intizomi holati, uni mustahkamlash, bu borada rahbarlar mas’uliyatini kuchaytirish to‘g‘risida (Sh.Sadikov, D.Yusupov).

III. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari hamda so‘rovlar ijrosi holati to‘g‘risida (Sh.Sadikov, N.Anarkulova).

IV. Turli masalalar:

O‘zbekiston Kinofotofono hujjatlari milliy arxivi direktori A. Mahkamovning Qozog‘iston Respublikasiga qilgan xizmat safari yuzasidan hisoboti;
O‘zbekiston Milliy arxivi direktori o‘rinbosari A. Tillaxodjayevning Tatariston Respublikasiga qilgan xizmat safari yuzasidan hisoboti.

(U. Yusupov, Sh. Sadikov, X. Isayev, Sh. Xojiboyev, D. Kucharova, A. Mamanazarov, D. Zakirova, U. Yusupov)

I. “O‘zarxiv” agentligining 2023-yil 1-chorak yakunlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti hamda Hukumati tomonidan belgilangan vazifalarning bajarilishi to‘g‘risida.

“O‘zarxiv” agentligi direktori U. Yusupovning “O‘zarxiv” agentligining 2023-yil 1-chorak yakunlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti hamda Hukumati tomonidan belgilangan vazifalarning bajarilishi to‘g‘risidagi axboroti eshitildi.

O‘zbekiston Respublikasida arxiv ishini rivojlantirishning 2023-yil 1-chorakka mo‘ljallangan rejasi 18 ta ko‘rsatkichlar bo‘yicha bajarilib, shundan 16 ta ko‘rsatkich bo‘yicha oshirib bajarilgan.

Xususan, **65 097** qog‘oz asosidagi hujjatlar (*2023-yil 1-choragida 54 805 varaq rejalashtirilib, 119%ga oshirib bajarilgan*) ta‘mirlanganligi, **26 619** s.b. hujjatlar (*159%*) muqovalangan va tikilgan.

Alohida qimmatli **4 502 s.b.** (258%) qog‘oz asosidagi, 30 s.b. (120%) kino, 800 h.b. (133%) surat hujjatlar aniqlangan.

MAF hujjatlarining **3,586 mln.** kadr (110,3%) elektron nusxalari yaratilgan.

Davlat arxivlari tomonidan **48 518 s.b.** (161%) boshqaruv, 231 s.b. shaxsiy kelib chiqish, **5 932 s.b.** (187%) shaxsiy tarkib, **10 s.b.** (100%) kino, **867 s.b.** (118%) surat, **100 s.b.** (100%) ovozli hujjatlar qabul qilingan.

Davlat arxivlari tomonidan 159 172 s.b. (137%) boshqaruv, 3 017 s.b. (230%) shaxsiy tarkib, 9 s.b. (150%) shaxsiy kelib chiqish, 1 300 s.b. (104%) ilmiy-texnik hujjatlar, 377 s.b. (120%) surat hujjatlarining mavjudligi va holati tekshirilgan.

davlat arxivlari tomonidan tashkilot va korxonalarining 46 139 s.b. boshqaruv (184%), 300 s.b. (200%) ilmiy-texnik, 12 526 s.b. (264%) shaxsiy tarkib, 34 640 s.b. saqlash muddati vaqtincha bo‘lgan hujjatlari, shuningdek, shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivlari tomonidan 1 055 s.b. (491%) boshqaruv, 22 434 s.b. (275%) shaxsiy tarkib, 21 795 s.b. saqlash muddati vaqtincha bo‘lgan hujjatlari shartnoma asosida tartibga keltirilgan.

Davlat arxivlarida saqlanayotgan 31 435 s.b. (157%) boshqaruv, 283 s.b. (566%) shaxsiy tarkib hujjatlarning qimmatlilikini aniqlash ekspertizasi o‘tkazilgan.

Davlat arxivlari tomonidan tashkilot va korxonalarda 268 ta (117%) yalpi, 137 ta (114%) mavzuli o‘rganishlar o‘tkazilganligi hamda arxiv ishi va ish yuritish bo‘yicha uslubiy hamda amaliy yordam ko‘rsatilgan.

“O‘zarxiv” agentligi va hududiy boshqarmalar tomonidan 2023-yil 1-chorak davomida **75 ta** tashkilot va korxonalarda davlat nazorati tadbirlari o‘tkazilgan, tekshirishlarning **7 tasi** Agentlik tomonidan, **68 tasi** arxiv ishi hududiy boshqarmalari tomonidan o‘tkazilgan, tekshirish natijalariga ko‘ra “O‘zarxiv” agentligi tomonidan Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 215⁴-moddasida nazarda tutilgan huquqbuzarlikni sodir etgan 9 nafar mas‘ul xodimlariga nisbatan ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi bayonnomalar rasmiylashtirib tegishli sud organlariga yuborilgan, tashkilot va korxonalariga ko‘rib chiqilishi majburiy bo‘lgan 50 ta taqdimnomalar kiritilgan.

Davlat arxivlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlarning umumiy hajmi 8,087 mlrd. so'mni (187%), shundan davlat arxivlarida 5,548 mlrd. so'mni (224%), shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivlarida 2,538 mlrd so'mni (137%) tashkil etgan.

Shu bilan birga, Arxiv ishi va ish yuritish markazi tomonidan belgilangan vazifalarga erishida sustkashlikka yo'l qo'yib, 2023-yil I choragida Markazda atigi 76 nafar tinglovchi malaka oshirgan.

II. "O'zarxiv" agentligida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hujjatlari va topshiriqlari ijrosini tashkil qilish va nazorat qilish, Agentlik tizimidagi tashkilotlarda ijro intizomi holati, uni mustahkamlash, bu borada rahbarlar mas'uliyatini kuchaytirish to'g'risida.

"O'zarxiv" agentligi direktori o'rinbosari Sh. Sadikovning "O'zarxiv" agentligida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hujjatlari va topshiriqlari ijrosini tashkil qilish va nazorat qilish, Agentlik tizimidagi tashkilotlarda ijro intizomi holati, uni mustahkamlash, bu borada rahbarlar mas'uliyatini kuchaytirish holati to'g'risidagi axboroti eshitildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-fevraldagi PF-6166-son Farmoni hamda 2021-yil 31-maydagi PQ-5132-son qarori talablariga muvofiq "Ijro.gov.uz" tizimida nazoratga olingan topshiriqlarning 2023-yil I choragi davomidagi ijro holati batafsil tahlil qilindi.

"Ijro.gov.uz" tizimida nazoratga olingan va 2023-yil I choragi davomida bajarilishi lozim bo'lgan topshiriqlar soni jami 41 tani tashkil etadi, topshiriqlarning 40 tasi belgilangan muddatlardan kechiktirilmasdan ijrosi ta'minlangan va 1 ta hujjat ijrosi bajarilmoqda.

2023-yil I chorak davomida Agentlik markaziy apparatida jami 11 ta direksiya yig'ilishi o'tkazilgan.

2023-yil I choragi davomida Agentlikka kelib tushgan hujjatlar 1 378 tani, yuborilgan hujjatlar 402 tani tashkil etgan, 22 ta asosiy faoliyatga oid, 40 ta shaxsiy tarkibga oid buyruqlar va 7 ta farmoyishlar ishlab chiqilgan.

Hisobot davrida Agentlik tomonidan 11 ta, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Qonunlari (1 ta), O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari (2 ta), O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari (6 ta), O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaror va farmoyishlari (2 ta) ijrosi yuzasidan tegishli hujjatlar qabul qilingan.

"O'zarxiv" agentligining 2020-yil 30-oktabrdagi 211-son buyrug'i bilan 2020-yil 15-noyabrga qadar O'zbekiston milliy arxivlari va arxiv ishi hududiy boshqarmalari idoraviy hujjat almashinuvi yagona elektron hujjat aylanish tizimi ga (mf.ijro.uz va app.ijro.uz) ulanishlari 2020-yil 1-dekabrga qadar barcha davlat arxivlari va shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivlari tizimlardan samarali foydalanishi belgilab qo'yilganligiga qaramasdan, ijro intizomi va ish yuritish holati hamda elektron hujjat aylanish tizimlaridan foydalanish boyicha ishlarni monitoring qilish natijasida bugungi kunda **Farg'ona viloyati arxiv ishi hududiy boshqarmasi (D.Mallayev)** tizimidagi Qo'qon Shahar davlat arxivi, Farg'ona tumani, Qo'shtepa tumani, O'zbekiston tumani, Quvasoy shahar, Bog'dod tumani, Furqat tumani, Buvayda tumani, Marg'ilon shahar va So'x tumani shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivida, **Jizzax viloyati arxiv ishi hududiy boshqarmasi (S. Avliyaxonov)** tizimidagi Forish tumani, Baxmal tumani va Arnasoy tumani shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivida, **Xorazm viloyati arxiv ishi hududiy boshqarmasi (R. Matrasulov)** tizimidagi Urganch tumani, Shovot tumani, Yangibozor

tumani shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivlarida, **Qashqadaryo viloyati arxiv ishi hududiy boshqarmasi (S. Babaqulov)** tizimidagi Mirishkor tumani davlat arxivi va Nishon tumani shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivida, **Sirdaryo viloyati arxiv ishi hududiy boshqarmasi (Sh. Normatov)** tizimidagi Sirdaryo, Boyovut, Oqoltin tumanlari shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivlarida tizim imkoniyatlaridan to'liq foydalanmaslik hamda ijro intizomi va ish yuritish to'g'ri tashkil etilmaganligi aniqlandi.

III. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari hamda so'rovlar ijrosi holati to'g'risida.

“O‘zarxiv” agentligi direktori o‘rinbosari Sh. Sadikovning jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari hamda so‘rovlar ijrosi holati to‘g‘risidagi axboroti eshitildi.

“O‘zarxiv” agentligi rahbariyati tomonidan 2023-yil I chorak davomida Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlardagi shahar hamda tumanlarda jismoniy va yuridik shaxslarni sayyor qabuli jadvaliga asosan **2 ta** sayyor va shaxsiy qabullar o‘tkazilib, ularda **19 nafar** fuqarolar murojaatlari ko‘rib chiqildi.

Agentlikka 2023-yil I choragida jismoniy va yuridik shaxslardan jami **247 ta** (2022-yil I chorakda 245 ta, o‘tgan yilga nisbatan **101%**), jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti virtual qabulxonasi orqali **203 ta (126%)**, Adliya vazirligi orqali **9 ta**, Sayyor va shaxsiy qabullardan **19 ta (56%)**, Agentlikka to‘g‘ridan to‘g‘ri yozma **10 ta (21%)**, idoraviy aloqa markazidan (ishonch telefoni) **4 ta (133%)**, O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining “Xotin-qizlar muammolari bo‘yicha 1211 ishonch telefoni” dan (Call-center) **2 ta** murojaatlar kelib tushdi.

Agentlik tomonidan qanoatlantirilgan murojaatlar soni 67 ta, tegishli tushuntirishlar berilgan murojaatlar soni 107 ta, tegishliligi bo‘yicha tegishli tashkilotlarga yuborilgan murojaatlar soni 35 ta, ko‘rmasdan qoldirilgan murojaatlar soni 40 tani tashkil etadi.

Agentlikka 1 chorak davomida jami 49 ta shikoyat kelib tushgan, shundan, 11 tasi qanoatlantirilgan, 28 tasi tegishli tushuntirishlar berilgan, 10 tasi tegishliligi bo‘yicha tegishli tashkilotga yuborilgan.

Shu bilan birga, Agentlikka takroriy murojaatlar soni 47 ta, shundan, ijobiy hal etilgan murojaatlar soni 1 ta, tushuntirish berilgan murojaatlar soni 2 ta, tegishliligi bo‘yicha yuborilgan murojaatlar soni 3 ta, ko‘rmasdan qoldirilgan murojaatlar (1 ta fuqaro tomonidan yozilgan murojaat bo‘lib, arxiv vakolatiga kirmaganligi sababli tegishliligi bo‘yicha yuborilgan) soni 40 tani tashkil etgan.

Respublika davlat arxivlariga jami jismoniy va yuridik shaxslardan **325 ta** (2022-yil I chorakda 1 291 ta, ko‘rsatkichi **25%**) murojaatlar kelib tushgan hamda o‘rnatilgan tartibda ko‘rib chiqilgan, shundan 126 ta murojaat qanoatlantirilgan, 162 tasiga tushuntirish berilgan, 37 tasi tegishliligi bo‘yicha boshqa tashkilotga yuborilgan.

2023-yil I chorak davomida Respublika arxivlariga jami **21 587 ta mavzuli so‘rovlar kelib tushgan**, shundan davlat arxivlariga **19 322 ta** (7 985 ta, **242%**), shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivlariga **2 265 ta** (360 ta, bajarilishi **629%**) kelib tushgan.

2023-yil I choragida Respublika arxivlariga **132 984 ta ijtimoiy-huquqiy mazmundagi so‘rovlar** (2022-yil I chorakda 111 135 ta, ko‘rsatkichi **120%**) kelib tushgan bo‘lib, shundan davlat arxivlariga 67 748 ta (50 269 ta, ko‘rsatkichi **135%**), shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivlariga 65 236 ta (60 839 ta, ko‘rsatkichi **107%**) kelib tushgan.

Davlat xizmatlari markazlari va Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali **112 379 ta** (62 466 ta, ko'rsatkichi **180%**), Pochta va elektron pochta orqali **8 169 ta** (19 794 ta, ko'rsatkichi **41%**) ijtimoiy-huquqiy mazmundagi so'rovlar kelib tushgan bo'lib, **12 436 nafar** (28 875 ta, ko'rsatkichi **43%**) fuqaro bevosita arxivga murojaat etgan.

Arxiv hujjatlari asosida **86 805 ta** (76 969 ta, ko'rsatkichi **113%**) so'rovlar ijrosi bajarilib, ulardan **77 668 tasi** (69 121 ta, ko'rsatkichi **112%**) ijobiy, **9 137 tasi** (7 884 ta, ko'rsatkichi **116%**) bo'yicha esa tegishli ko'rsatma va tushuntirishlar berilgan. Tashkilot hujjatlari arxiv saqloviga kelib tushmagan va taalluqligi bo'yicha tegishli tashkilotlarga yuborilgan so'rovlar soni **36 817 tani** (15 782 ta, ko'rsatkichi **233%**) tashkil etdi.

Shu bilan birga, Davlat xizmatlari markazlari orqali kelib tushayotgan so'rovlarni bajarishda **610 ta muddat buzilish holatlari aniqlangan**. Jumladan,

O'zbekiston Milliy arxivi (9), Qoraqalpog'iston Respublikasi Amudaryo (2), To'rtko'l (10), Qonliqo'l (2) tumanlari davlat arxivlari, Andijon viloyati shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivi (1), Jizzax viloyati G'allaorol (3), Zafarobod (3), Zarbdor (2) tumanlari shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivlari, Qashqadaryo viloyati Qarshi (2), Koson (4) tumanlari davlat arxivlari, Qarshi shahar (6), Kitob (1), Dexqonobod (1) tumanlari shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivlari, Navoiy viloyati Xatirchi tumani shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivi (6), Namangan viloyati (7), Chortoq (15), Kosonsoy (5), Yangiqo'rg'on (2) tumanlari davlat arxivlari, Namangan shahar (9), Uychi (11), Chust (2) tumanlari shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivlari, Samarqand viloyati Narpay tumani davlat arxivi (1), Samarqand shahar (1), Tayloq (1), Paxtachi (7) tumanlari shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivlari, Surxondaryo viloyati Angor (2), Muzrabot (4) tumanlari davlat arxivlari, Qumqo'rg'on (1), Termiz (9) tumanlari shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivlari, Sirdaryo viloyati Oqoltin tumani shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivi (1), Farg'ona viloyati Marg'ilon (9), Quvasoy (1) shahar, Yozyovon tumani (4) shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivlari, Toshkent viloyati Yangiyo'l (13), Chinoz (10) tumanlari, Olmaliq shahar (1) shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivlari tomonidan **Ish haqini tasdiqlash to'g'risidagi arxiv ma'lumotnomasini olish bo'yicha jami 168 ta arizalar**;

Qoraqalpog'iston Respublikasi To'rtko'l tumani davlat arxivi (1), Andijon viloyati Ulug'nor tumani shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivi (9), Buxoro viloyati Qorovulbozor tumani davlat arxivi (1), Jizzax viloyati G'allaorol (4), Forish (1) tumanlari shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivlari, Namangan viloyati davlat arxivi (1), To'raqo'rg'on tumani shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivi (2), Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on shahar davlat arxivi (1), Surxondaryo viloyati Termiz (2), Oltinsoy (1), Qiziriq (1) tumanlari shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivlari, Sirdaryo viloyati Oqoltin tumani shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivi (2), Toshkent viloyati davlat arxivi (3), Qibray tumani shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivi (1) tomonidan **Ish stajini tasdiqlash to'g'risidagi arxiv ma'lumotnomasini olish bo'yicha jami 30 ta arizalar**;

Jizzax viloyati Sh. Rashidov tumani davlat arxivi (1), Sh. Rashidov (1), G'allaorol tumanlari shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivi (9), Qashqadaryo viloyati (4), Qarshi (2) Koson (2), G'uzor (1) tumanlari davlat arxivlari, Dehqonobod tumani (1), Qarshi shahar (1), Qarshi tumani (1) shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivi, Namangan viloyati Chortoq tumani davlat arxivi (2), Yangiqo'rg'on tumani davlat arxivi (1), Uychi tumani shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivi (2), Sirdaryo viloyati Yangiyer shahar davlat arxivi (2) Toshkent viloyati Angren shahar davlat arxivi

(1), Yangiyo‘l tumani shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivi (2), Farg‘ona (1), Uchko‘prik (1) tumanlari, Marg‘ilon shahar (3) shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivi tomonidan **Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim muassasasida o‘qiganlikni tasdiqlash haqidagi arxiv ma‘lumotnomasini olish bo‘yicha jami 38 ta arizalar;**

O‘zbekiston Milliy arxivi (171), O‘zbekiston Ilmiy-texnika va tibbiyot hujjatlari milliy arxivi (8), Andijon viloyati davlat arxivi (5), Buxoro viloyati davlat arxivi (2), Jizzax viloyati (1), Sharof Rashidov tumani (1) davlat arxivi, Qashqadaryo viloyati Yakkabog‘ tumani davlat arxivi (1), Qamashi tumani shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivi (2), Navoiy viloyati (1), Zarafshon tumani davlat arxivi (1), Navoiy shahar shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivi (1), Farg‘ona viloyati davlat arxivi (7), Samarqand viloyati (8), Kattaqo‘rg‘on shahar (2) davlat arxivi, Surxondaryo viloyati davlat arxivi (1), Toshkent shahar markaziy davlat arxivi (9), Toshkent viloyati (5), Bekobod (4), Yangiyo‘l (1) shahar davlat arxivlari, Xorazm viloyati davlat arxivi (1), tomonidan **Davlat arxivlar o‘quv zallarida arxiv hujjatlaridan foydalanishga ruxsatnoma berish bo‘yicha jami 232 ta arizalar;**

Andijon shahar (2), Buloqbo‘shi (14) Marxamat (23), Shahrixon (2), Xo‘jaobod (24) tumanlari shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivlari, Buxoro tumani shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivi (1), Jizzax viloyati G‘allaorol (1), Zafarobod (1), Zarbdor (2) tumanlari shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivi (1), Qashqadaryo viloyati Chiroqchi tumani shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivi (3), Navoiy viloyati Xatirchi tumani shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivi (13), Namangan viloyati Chust (1), Chortoq (1) tumanlari shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivlari, Surxondaryo viloyati Jarqo‘rg‘on tumani davlat arxivi (1), Termiz tumani shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivi (1), Toshkent viloyati Yangiyo‘l tumani shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivi (2), Xorazm viloyati Xonqa (1), Yangibozor (2) tumanlari shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivlari tomonidan **Yaroqsiz holatga kelgan yoki yo‘qotilgan mehnat daftarchasidagi yozuvlarni tasdiqlash bo‘yicha jami 95 ta arizalar;**

Qoraqalpog‘iston Respublikasi To‘rtko‘l tumani davlat arxivi (1), Andijon viloyati Izboskan tumani davlat arxivi (2), Buloqbo‘shi tumani shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivi (1), Buxoro viloyati Jondor tumani davlat arxivi (1), Qashqadaryo viloyati (1), Qarshi (1), Yakkabog‘ (1) tumanlari davlat arxivlari, Jizzax viloyati Do‘stlik tumani davlat arxivi (1), G‘allaorol tumani shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivi (1), Namangan viloyati (1), Chust (1), Kosonsoy (1), Yangiqo‘rg‘on (4) tumanlari davlat arxivlari, Samarqand viloyati (4), Samarqand tumani (2), Kattaqo‘rg‘on shahar (1) davlat arxivlari, Surxondaryo viloyati Muzrabot tumani davlat arxivi (1), Sirdaryo viloyati Sirdaryo tumani davlat arxivi (1), Toshkent viloyati Qibray tumani (1), Angren (2), Chirchiq (4), Yangiyo‘l (1) shahar davlat arxivlari, Chinoz (5), Quyi Chirchiq (1), Yangiyo‘l (3), Zangiota (1) tumanlari shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivlari, Xorazm viloyati Xonqa (1), Yangibozor (2) tumanlari davlat arxivlari tomonidan **Mavzuli so‘rovlarni ijro etish bo‘yicha (shu jumladan tezlashtirilgan tartibda) jami 47 ta ariza muddati buzilib ijro etilgan.**

Shu bilan birga, Murojaatlarni ijro etishda Angor tuman davlat arxivi tomonidan fuqaro P. Durdiyevga arxiv ma‘lumotnomasini rasmiylashtirishda qo‘pol qonunbuzilishlariga yo‘l qo‘ygan.

Xususan, Angor tuman davlat arxivi saqlovidagi Angor rayon Kalinin nomli kolxoz a‘zolarining umumiy yig‘ilishi 1987-yil 26-yanvardagi 2-sonli protokoli kun tartibi bo‘yicha to‘rtinchi xar xil masalalar qaror qilish qismining:

4-bandida, fuqarolar, Turdiyev Panji, fuqarolarga kolxoz GEN planidan tomorqa yer berilsin;

6-bandida, fuqarolarga kolxoz GEN planidagi yangi qurilayotgan uylardan berilsin deb qayd etilgan.

Angor tuman davlat arxivining fuqaro P. Durdiyevga berilgan 2021-yil 2-iyundagi 02-1/462-son arxiv ma'lumotnomasida Turdiyev Panji. 5 Kolxoz gen planidagi yangi qurilayotgan uylardan berilsin deb xato ko'chirmalar qilingan. Shuningdek, Angor tuman davlat arxivining fuqaro P. Sh. Durdiyevga berilgan 2019-yil 15-iyuldagi 02-1/1393-son arxiv ma'lumotnomasida ham shu kabi **xato va kamchiliklarga yo'l qo'yilgan.**

Bundan tashqari, Chirchiq shahar davlat arxivi tomonidan 2023-yil 20-yanvar kuni fuqaro N. Azimovaga my.archive.uz (my.gov.uz) orqali notarius hujjatida N. Azimovaning nomi qayd etilmaganligi to'g'risida arxiv ma'lumotnomasi taqdim etilgan bo'lsada, **biroq fuqaro bevosita murojaat etganda N. Azimova nomiga arxiv hujjatlaridan nusxa taqdim etilgan.**

Agentlikka kelib tushayotgan murojaatlar bo'yicha topshiriqnomada vazifalar aniq belgilab berilgan bo'lsada, Andijon (07-06/129-son, 07-06/317-son murojaat), Qashqadaryo (07-06/283-son murojaat), Sirdaryo (07-06/79-son murojaat) viloyatlari arxiv ishi hududiy boshqarmalari tomonidan **Agentlikning topshirig'iga rioya etmasdan, fuqarolarga javob xatlari yuborilgan.**

Kun tartibidagi masalalar bo'yicha berilgan ma'lumotlar va bildirilgan fikr-mulohazalar muhokamasi asosida **Agentlik Hay'ati qaror qiladi:**

1. Kun tartibidagi masalalar bo'yicha berilgan axborotlar hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 8-maydagi PF-67-son "Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlisining 2023-yil 19-maydagi 45-son va 46-son bayoni **ma'lumot uchun qabul qilinsin.**

2. Arxiv ishi va ish yuritish markazi direktori (**M.Rixsiboyev**) belgilangan vazifalar bajarilmaganligi uchun ogohlantirilsin.

3. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar arxiv ishi hududiy boshqarmalari boshliqlari hamda O'zbekiston milliy arxivlari direktorlari **bir hafta muddatda** tegishli ravishda hay'at ma'ruzasida ko'rsatib o'tilgan kamchiliklarni muhokama qilib, quyidagi xodimlarga nisbatan intizomiy javobgarlik choralari qo'llash masalasi ko'rib chiqilsin hamda amalga oshirilgan ishlar bo'yicha Agentlikka asoslantirilgan holda axborot taqdim qilinsin:

Davlat xizmatini ko'rsatish tartibini (muddatini) buzgan mas'ul xodimlar;

Chirchiq shahar davlat arxivi rahbar va mas'ul xodimlari;

Angor tumani davlat arxivi rahbar va mas'ul xodimlari.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 8-maydagi PF-67-son "Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmonida belgilangan vazifa va tadbirlarni amalga oshirish hamda yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini so'zsiz va to'liq amalga oshirish Agentlik va uning tizimidagi tashkilotlar rahbarlarining oldida turgan birinchi navbatdagi ustuvor vazifalari etib belgilansin.

5. Agentlik bo'lim boshlig'i (Sh. Tursunbayev):

bir hafta muddatda yangi tahrirdagi Konstitutsiyada belgilangan yangi qoida va normalarni soha xodimlariga yetkazish bo'yicha seminar tashkil etsin;

uch kun muddatda Konstitutsiyani targ'ib qilish guruhini shakllantirsin.

6. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar arxiv ishi hududiy boshqarmalari boshliqlari hamda O'zbekiston milliy arxivlari hamda Arxiv ishi va ish yuritish markazi direktorlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 2023-yil 8-maydagi PF-67-son Farmoni bilan tasdiqlangan davlat dasturida belgilangan vazifalarning soha doirasida izchil bajarish, barcha arxiv xodimlari uchun tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning mazmun-mohiyatini tushuntirish choralari ko'rilin va amalga oshirilgan ishlar yuzasidan **2023-yil davomida har oying yakuni** bilan Agentlikka ma'lumot taqdim etilishini ta'minlasinlar.

7. Arxiv ishi va ish yuritish markazi direktori (**M.Rixsiboyev**) 2023-yilda Markazda arxiv ishi va ish yuritish bo'yicha malaka oshiradigan tinglovchilar sonini kamida 1000 nafarga yetkazilishi ta'minlansin va ushbu rejani bajarilishi bo'yicha **bir hafta muddatda** chora-tadbirlar belgilansin hamda amalga oshirilgan ishlar bo'yicha Agentlikka ma'lumot kiritilsin.

8. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar arxiv ishi hududiy boshqarmalari boshliqlari hamda O'zbekiston milliy arxivlari direktorlari:

ma'muriy islohotlar doirasida tugatilgan, qayta tashkil etilgan va bo'ysunuvi o'zgargan tashkilotlarning arxiv hujjatlarini qabul qilishda qat'iy ravishda "Arxiv ishi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuniga va arxiv sohasiga doir qonunchilik hujjatlariga rioya etilishini, bunda faqatgina tugatilgan tashkilotlarning hujjatlarini arxivlarga qabul qilinishi nazarda tutilishini ta'minlasin;

davlat arxivlari tomonidan ushbu tashkilotlarning arxiv hujjatlarini o'rnatilgan tartibda tartibga keltirilishi bo'yicha jadal ravishda chora-tadbirlar ko'rilishini;

davlat arxivlari tomonidan raqamlashtirilayotgan (raqamlashtirilgan) barcha arxiv hujjatlarini bir vaqtning o'zida "Davlat arxivlarida raqamlashtirilayotgan hujjatlarni yagona saqlovini ta'minlash hamda ulardan foydalanish" axborot tizimiga kiritib borish choralari ko'rib borilishini;

davlat arxivlariga asosiy vositalar uchun ajratilgan mablag'larni hududiy o'rnatilgan tartibda sarflash choralari ko'rilishini hamda qonunbuzilish holatlarini oldini olish maqsadida moliya bo'limlar bilan hamkorlik o'rnatilishini;

barcha darajadagi rahbar va xodimlar tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etish, shu jumladan, maishatbozlik, ichkilikbozlik va boshqa salbiy illatlarga yo'l qo'ymaslik, jamoada sog'lom ma'naviy muhitni saqlash, fuqarolar va hamkasblarining sha'ni va qadr-qimmatiga dog' tushiruvchi ma'lumotlar, tuhmat, ig'vo va uydirmalarni tarqatmaslik, mehnat va ijro intizomi, ichki tartib qoidalariga, shuningdek, telefonda so'zlashish va kiyinish madaniyatiga qat'iy rioya etish, har qanday qonunbuzilishiga, ayniqsa, korrupsiya holatlariga qarshi murosasizlik bilan kurashish, korrupsiya va boshqa suiiste'molchiliklar sodir etilishining oldini olish, "halollik vaksinasi" bilan emlash, ya'ni halollikni ularning ongiga singdirish, ma'rifat orqali ularda korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo'lish kayfiyatini shakllantirish choralari doimiy ravishda ko'rib borilishini;

1993-yil 22-yanvarda Minsk shahrida imzolangan Fuqarolik, oilaviy va jinoyat ishlari bo'yicha huquqiy yordam hamda huquqiy munosabatlar to'g'risidagi Konvensiya va 2002-yil 7-oktabrda Kishinev shahrida imzolangan

Fuqarolik, oilaviy va jinoiy ishlar bo'yicha huquqiy yordam va huquqiy munosabatlar to'g'risidagi Konvensiya doirasida kelib tushayotgan so'rovlar ijrosi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 17-noyabrdagi PF-4895-son Farmoniga muvofiq ta'minlanishini;

vakant lavozimlarini yashirmaslik, ular bo'yicha hisobotlarni doimiy ravishda tegishli organlarga berib borish, shuningdek, vakant lavozimlarini doimiy ravishda to'ldirib borish choralari ko'rib borilishini;

arxivlar tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlardan kelib tushayotgan mablag'larning 30 foiz miqdoridagi mablag'larni byudjetga o'tkazilmaslik choralari ko'rilishini;

Adliya vazirligidan olingan skaner uskunalari mutaxassislar tomonidan o'rnatib berilguniga qadar, oqilona saqlab, ularni vaqtincha foydalanmay turish choralari ko'rilishini;

ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikni kuchaytirish va arxiv faoliyatini doimiy ravishda yoritib borish, jumladan, 9-iyun Xalqaro arxivlar kuni munosabati bilan OAV keng yoritish choralari ko'rilishini;

amalga oshirilgan ishlar yuzasidan **2023-yil davomida har oyning yakuni** bilan Agentlikka ma'lumot taqdim etilishini ta'minlasin.

9. "O'zarxiv" agentligi Moliya va iqtisod bo'limi boshlig'i (F. Suyunov) **uch kun muddatda** arxiv ishi hududiy boshqarmalarida buxgalter shtat birligi yo'qligini inobatga olib, ular tomonidan moliya-xo'jalik ishlarini lozim darajada amalga oshirishni ta'minlash maqsadida tegishli ko'rsatmalar tayyorlansin, bunda haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnoma namunasi ishlab chiqilsin va hududiy boshqarmalarga yuborish choralari ko'rsin.

10. "O'zarxiv" agentligi direktori o'rinbosari (**Sh. Sadikov**) va bosh mutaxassis (**L. Mirzayev**) Mehnat kodeksi kuchga kirganligini inobatga olgan holda, o'n kun muddatda Jismoniy va yuridik shaxslarning arxiv hujjatlarini tartibga keltirish bo'yicha arxivlar huzurida xo'jalik hisobidagi guruh to'g'risidagi nizom loyihasini ishlab chiqsin.

11. O'zbekiston Milliy arxivi direktori (**D. Zakirova**) bir oy muddatda aholiga shajaraviy ma'lumotlarni to'plab berish xizmatini rivojlantirish va ommalashtirish bo'yicha aniq hamda asoslangan takliflarni Agentlikka kiritsin.

12. O'zbekiston Ilmiy-texnika va tibbiyot hujjatlari milliy arxivi direktori (**B. Axmedov**) **bir hafta muddatda** Tashkilotlarning ilmiy-texnikaviy va ishlab chiqarish faoliyatida tuziladigan, saqlash muddatlari ko'rsatilgan hujjatlarni namunaviy ro'yxati loyihasini (*davlat tilida hamda sifatli ravishda*) yakuniga yetkazgan holda Agentlikka kiritsin.

13. "O'zarxiv" agentligi direktori o'rinbosarlari (**Sh.Sadikov, X.Isayev**) hamda Ijro intizomi bo'yicha bosh mutaxassisi (**D.Yusupov**):

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-fevraldagi PF-6166-son Farmoni hamda 2021-yil 31-maydagi PQ-5132-son qarori bilan belgilangan talablar asosida topshiriqlarning o'z vaqtida va to'laqonli bajarilishi yuzasidan ta'sirchan choralar ko'rsinlar;

topshiriqlar ijrosini amalda nazorat qilinishini shaxsan tashkil etsinlar, bunda markaziy apparat, hududiy boshqarmalar va O'zbekiston milliy arxivlarida ishlarning real holatini tanqidiy o'rganishga e'tibor qaratsinlar;

topshiriqlarni bajarish bo'yicha nazorat va hisobdorlikni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-fevraldagi PF-6166-son Farmoni hamda

2021-yil 31-maydagi PQ-5132-son qarori bilan belgilangan tartibga qat'iy amal qilgan holda tashkil etsinlar.

14. Ijro intizomi bo'yicha bosh mutaxassisi (**D.Yusupov**):

“O‘zarxiv” agentligi tizim tashkilotlarida ijro intizomini ta'minlash va ish yuritishni tashkil etishda metodik ko'maklashish amaliyotini davom ettirsin;

O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, Prezident farmonlari, qarorlari, farmoyishlari va Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlari bilan ishlashda kamchiliklarga yo'l qo'ygan rahbarlarga intizomiy jazo choralarini qo'llash to'g'risida takliflarni “O‘zarxiv” agentligi direktoriga kiritib borsin.

15. “O‘zarxiv” agentligi direktori o‘rinbosarlari (Sh.Sadikov, X.Isayev), barcha bo‘lim boshliqlari va mas’ul xodimlarga o‘zlarining xulq-atvori, yurish-turishi, madaniyati bilan qo‘l ostidagilarga shaxsiy o‘rnak bo‘lishlari, mas’uliyat va javobgarlikni, har bir noqonuniy xatti-harakat uchun jazo muqarrarligini chuqur his etgan holda faoliyatini tashkil etishi lozimligi ko‘rsatib o‘tsin.

16. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar arxiv ishi hududiy boshqarmalari boshliqlari hamda O‘zbekiston milliy arxivlari hamda Arxiv ishi va ish yuritish markazi direktorlari:

hay'at ma'ruzasida hamda yig'ilish bayonida ko'rsatib o'tilgan xato va kamchiliklarni o'zlarining direksiya (ishlab chiqarish) yig'ilishlarida tanqidiy muhokama qilib, ularni bartaraf etishga qaratilgan aniq chora-tadbirlarni ko'rsinlar, **amalgam oshirilgan ishlar to'g'risida yakuniy** (bandma-band bajarilishi bo'yicha) umumlashtirilgan ma'lumotni tegishli hujjatlarni ilova qilgan holda joriy yilning **12-iyun kuniga** qadar (*ushbu bayonnomada boshqacha muddat nazarda tutilmagan taqdirda*) Agentlikka taqdim etsinlar;

murojaatlarda qayd qilingan vakolat doirasidagi har bir masalani o'z vaqtida xolis va qonuniy ko'rib chiqilishini qat'iy nazoratga olsin;

vakolat doirasida ko'rib chiqish mumkin bo'lgan shikoyat turidagi murojaatlarni taalluqliligi vaji bilan shikoyat qilinayotgan tashkilot, uning yuqori organiga yoki boshqa nazorat qiluvchi organga yuborish yoki sudga murojaat qilish lozimligi to'g'risida tushuntirish berish amaliyotini to'xtatsin.

jismoniy va yuridik shaxslarning har bir murojaatini o'z vaqtida, qonunchilik talablariga qat'iy amal qilgan holda ko'rib chiqilishi yuzasidan yanada talabchanlikni kuchaytirsinlar;

jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlarining, shuningdek takroriy murojaatlarning ko'payishi sabablarini o'rganish hamda kelgusida ularni kamaytirish, murojaatlarni ko'rib chiqish muddatlarining asossiz buzilishiga yo'l qo'ymaslik choralarini ko'rsinlar;

joylardagi tizimli muammolarni aniqlab, ularni hal etish choralarini ko'rsinlar, murojaatlarni, ayniqsa takroriyolarining har birini, o'z vaqtida sifatli ko'rib chiqish yuzasidan nazorat ishlarini kuchaytirsinlar;

jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqishda mas'uliyatsizlik va yuzakichilikka yo'l qo'ygan mas'ul shaxslarga nisbatan keskin choralar ko'rsinlar;

rahbarlar tomonidan joylarda jismoniy va yuridik shaxslarning (vakillari) bilan tasdiqlangan jadval asosida sayyor qabullar o'tkazish amaliyotini davom ettirsinlar, qabullarda ko'tarilgan masalalar o'z vaqtida to'liq va sifatli ko'rib chiqilishini ta'minlasinlar, muammolarni imkon qadar joyida hal etish choralarini ko'rsinlar;

direksiya yig'ilishlarida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bo'yicha ishlarning ahvolini muntazam muhokama etib borish va tegishli tarkibiy tuzilmalarda

monitoringlar o'tkazsinlar, qonunda belgilangan talablarni buzgan mas'ul xodimlarga nisbatan keskin choralar ko'rib borsinlar;

murojaatlar bo'yicha ish yuritishni yanada takomillashtirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini samarali joriy etish, murojaatlar bilan ishlash bo'yicha mas'ul xodimlarning malakasini oshirish choralarini ko'rsinlar;

tizim tashkilotlariga nisbatan murojaatlar bilan ishlash bo'yicha talabchanlikni oshirish, ularga doimiy amaliy yordamlar ko'rsatish va tavsiyalar berib borish choralarini ko'rsinlar.

17. Ushbu yig'ilishi qarorlari ijrosi yuzasidan umumiy nazorat Agentlik direktori o'rinbosari (**Sh. Sadikov**) zimmasiga yuklatilsin.

Hay'at a'zolari:

Sh. Sadikov

X. Isayev

D. Kucharova

A. Mamanazarov

D. Zakirova

Bayonnoma tuzuvchi:

Sh. Xojiboyev